



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3,546 (2020)

2022/№5

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-МЕТОДИК
ЖУРНАЛ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODICAL
JOURNAL

<https://buxdu.uz>



№ 5, 2022
май

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАД҆ҚИҚОТЛАР ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

Муассис:

Бухоро давлат университети
Фан ва таълим МЧЖ

Бош мухаррир: Маммуров Баходир
Бахшуллаевич

Жамоатчилик кенгаши раиси:
Хамидов Обиджон Хафизович,
Бухоро давлат университети ректори

Таҳририят кенгаши раиси:
Махмудов Мэлс Ҳасанович

Масъул котиб: Акрамова Гулбаҳор
Ренатовна

Техник мухаррир: Давронов Исмонл
Эргашевич

Таҳририят манзили:
Бухоро шаҳар,
Қўмутазовев кўчаси, 16-й

Телефон:
+998(90)744-00-22

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Журналнинг электрон сайти:
www.interscience.uz

Журнал ОАК Раёсигининг 2021 йил
30 сентябрдаги 30/6-сон Қарори билан
ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ,
ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ
ФАНЛАРИ бўйича фалсафа
доктори (PhD) ва фан доктори (DSc)
имлйи даражасига талағорларнинг
диссертация ишлари юзасидан асосий
имлйи натижаларини чоп этиши тавсия
этилган имлмий нашрлар рўйхатига
киритилган

Босишига руҳсат этилди: 30.05.2022 й.
Коғоз бичими 60x84 1/8. 6/т.12,5.

Буюргат рақами 12
«FAN VA TA'LIM» нашриётida чоп
этилди. Бухоро шаҳар

Журнал 28.07.2021 йилда 9305
раками билан Ўзбекистон Оммак
ий аҳборот воситалари давлат
рўйхатидан ўтган

Журнал 2020 йилда ташкил топди
ва 2 ойда 1 марта чоп этилди.
2021 йил ноябрь ойидан бошлаб
хар ойда 1 марта ўзбек, рус ва инглиз
тилларида чоп этилади

«Гаълим ва инновацион
тадқиқотлар» халқаро имлйи-ме-
тодик журналидан кўчириб босиши
таҳририятнинг розилиги билан
амалга оширилади

Маколада келтирилган фактларнинг
тўғрилиги учун муаллиф масъуллар

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Ражабов Қ. К. Бухорода Чориқулбой ва бошқа мулқдорларнинг қатағон этилиши	7
Амонова Ф. С. Пахтачиликда бозор тамойиллари жорий этилишига оид ислоҳотлар (Бухоро амирлиги мисолида)	13
Отахўжаев А. “Бухоро” атамаси хусусида тарихчи сүғдшунос олимнинг янги мулоҳазалари	21
Элимов Л. Ш. Евпорада ренессанснинг пайдо булиши ва унга Шарқнинг таъсири	25
Райимов Ф. У. Темурийлар даврига оид мөъмрий обидаларнинг “Туркистон тўпламида” акс этиши	31
Пронин Р. О. Представления о зрительных илюзиях: история и современность	36
Boltayev B. B. “Jasorat” muzeyi: tarix va talqin	40
Юлдошева Б. М. Пахта монополиясининг Бухоро шаҳар атроф-муҳитига таъсири (XX аср давомида)	46
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Шарипова Л. Боқий мавзуда битилган шेърлар	52
Toirova G. I. So'zlashuv uslubida tejamlilikning pragmatik xususiyatlari	57
Amonov U.. S. Jadidchilik harakati va «Buxoroyi sharif» ro'znomasi	62
Мавлянова Т. Б. Специфика мусульманского и европейского Ренессансов	68
Темирова Ф. О. Болалар латифалари – таржимашуносликда тадқиқот объекти сифатида	74
Тийлиева Л. А., Хикматова Д. П. Трактовка исторических личностей в произведении Захирiddина Мухаммада Бабура «Бабурнаме»	78
Nojiyeva Nigina Hayot qizi O'zbek poetik matnlarida meva nomlaridan ramz sifatida foydalanish	86
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Jo'rayev H. O., Jamolova Sh. Q., Xudoibergaliyev Sh. B. Fizika darslarida mobil dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari	91
Еримбетов Б. К. Кураш спорт тури оммавийлигини ошириш муаммолари	96
Ходжаев Б. Қ., Хожиева М. Ш. Фуқаролик маданийтининг инсон ҳаёти ва жамият тараққиётидаги ўрни	101
Кинжакеева Г. С. Талабаларни маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга тайёрлашнинг педагогик концептуал моҳияти	109

Сапарниязов С. К. Талаба-ёшларни спорт мусобакаларига тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда тадбирлар ташкиллаштиришнинг аҳамияти	115
Pazilova M. E. Ajdodlarimiz merosini o'rganish jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	120
Narzullaeva B. Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqasini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirish	125
Namazbayeva L. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari va texnologiyalar	132
Сайдова Н. М. O'qituvchi-amaliyotchi talabalarning amaliyot jarayonida immanent va kontekst yondashuvlaridan keng foydalaniishi	141
Умаров А. Т. Жисмоний тарбия инсоният маданий тараққиётининг ажралмас қисмидир	146
Mo'minova D. K. Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari	152
Давронова фотима пирназаровна замонавий методлар асосида хорижий тилларни ўргатишнинг методик хусусиятлари	159
Юлдашев А. А. Халқ ўйинлари орқали ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантириш	164
Гафурова М. Ю. Волейбол ўйинида маҳсус жисмоний сифатларни тарбиялаш усуслари	168
Mansurov Sh. Sh. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan ta'lim metodlari	172
Nurullayev A. R. Jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda ta'lim metodlarining ahamiyati	176
Худайберганов О. Э., Якубов А. М Возможности и перспективы применения средств и специфики волейбола для формирования педагогических умений	179
Халилов Ф. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari o'quvchilar tarbiyasida asosiy manba	185
Alqorov Q.X. Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari	190
Зайнитдинова М.А. Математика дарсларида ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга инновацион ёндашув	195
Чутбаева А. Б. Трансформация русских и узбекских паремий	198
Ибрагимов А. К. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarni harakat faoliyatiga o'rgatish usullari	202
Xudoynazarova G. A., Murodova Sh. I. Umumta'lim o'rta maktablarda kimyo fanidan masalalarni zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida yechish uslubiyoti	208
Bozorova M. Sh. Kompetensiyaviy yondashuvlar asosida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o'qitish	212

Rasulov E. M. Talaba portfoliosini yaratish texnologiyasi	218
Хамираев Р. А. Физическое воспитание и пропаганда физической активности: образ жизни, спорт как важный опыт	223
Мирзаев Д. Х. Ўқувчиларни миллий спорт турларига қизиқишини оширишнинг тарихий таракқиёти	226
Ачилов О. X. Жисмоний тарбия ва спорт ўқувчини ахлоқий-эстетик тарбиялаш воситаси	229
Пулатова Д.Т. Мактабдан ташқари таълимда олий таълим интеграциялашуви	232
Хонқулов Ш.Х. Рақамли таълим мұхитининг ўзига хос хусусиятлари ва таркибий элементлари	237
Salimova S. F., Avliyakulova Sh. M. Ixtiologiya fani bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda kasbga yo'naltirish shakllarini takomillashtirish	241
Sobirova Sh. U. Chizmachilikni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan konstruktiv loyihalash masalalar tizimi va ularning tahlili	244
Nematov I. A. Texnika olivy ta'lim muassasalarida "Elektrotexnika va elektronika" fanidan ma'ruza darslarini o'qitishni takomillashtirish mazmuni	249
Imomkulova M. N. Development of ethical and cultural relations in students as a pedagogical problem	257
Raxmonqulov X. B. Qalamtasvirda ikki, uch geometrik shakllardan tashkil topgan natyurmort chizish	262
Рахимова Ш. Б. Мактабгача таълим йўналиши талабаларига инглиз тилини ўргатиш сифат мониторингини такомиллаштириш	267
19.00.00 – ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Тоштуров Ш. Э. Ўзбекистонда гендер тенглиги бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар	273
Abdurasulova F. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni pedagogik diagnostikaga tayyorlash	280
Мадрахимова Г. Ў. Хореографларни тайёрлашда педагогик туркум фанларнинг ўрни	284
Турсунов Л. С. Ёшлар дунёкарашида юзага келадиган салбий оғишиларнинг ижтимоий – психологик индикаторлари	292
Жалилова С. Х., Умрзоқова Н. И. Шахснинг ахлоқий шаклланиши ва ривожланишининг психологик мезонлари	297
Исмоилова Н. З. Ўкув фаолияти жараёнида талабалардаги стрессоген омилларни ўрганиш	302
Абдуллаева Д. У. Ёшларни оиласвий ҳаётга тайёрлашда тасаввурларнинг ўрни	307
Parpiyeva Sh. A. Psixolog shaxsida refleksiv madaniyatning rivojlanish xususiyatlari	311

JADIDCHILIK HARAKATI VA «BUXOROYI SHARIF» RO‘ZNOMASIDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022>.

*Amonov Ulug'murod Sultanovich,
BuxDUPi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkistonda – Buxoroda jadidchilik harakati, “usuli jadid maktablarining paydo bo'lishi, shu harakatning rahnamosi Ismoil Gaspirinskiy haqdida hamda jadidlarning ilk milliy matbuot nashri “Buxoroyi sharif” gazetasining 1912-yilgi nashrlari haqida, shuningdek, “Buxoroyi sharif” gazetasidagi adabiy, ijtimoiy muhit haqida mulohaza yuritilgan. Yuqorida nomi zikr etilgan gazetaning muharrirlari – noshirlari Mir Haydar Xo'ja Qosimovich, Mir Badalov va Jalol Yusufzoda Buxoriylarning faoliyati haqida qisqacha to'xtagan. Yana «Buxoroyi sharif» ro'znomasini kuzatib, unda hozirgacha bizga yaxshi tanish bo'lmagan, noma'lum bo'lgan adiblar: Jamol Yusufzoda, Sirojiddin Hakim Buxoriy Xurdov, Abdulvohid Burxonov – Munzim Buxoriy singari «yangi aylodi»lari va ularning faoliyati, ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Qolaversa, maqolada Abdurauf Fitratning mazkur gazeta bilan bog'liq faoliyatiga to'xtalib, adibning Saylanma asarlar ko'p tomligida shar etilmagan tojik tilida yozilgan “Faryod” she'ri to'liq keltirilib, mazmuni o'zbek tiliga o'girilib, qisqacha tahlil qilib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: jadid, jadidchilik harakati, “usuli jadid maktabi, gazeta, jurnal, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish davri va adabiyoti.

ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ И ГАЗЕТА «БУХОРОЙ ШАРИФ»

*Амонов Улугмурод Султанович,
доцент ПИ БухГУ, доктор философии по филологическим наукам.*

Аннотация. В данной статье речь идет о джадидском движении в Туркестано-Бухаре в конце 19-начале 20 веков, появлении джадидских школ, лидере движения Исмаиле Гаспиринском и издании 1912 года первой национальной печати джадидов газеты “Бухорои Шариф”, а также литературной и общественной среде в газете «Бухара Шариф». Кратко рассказано о деятельности редакторов и издателей вышеупомянутой газеты Мир Хайдар Ходжса Касимович, Мир Бадалов и Джалаал Юсуфзода Бухари. Также осматривая газету «Бухорои Шариф», коротко описано деятельность о его творчество «нового поколения» неизвестных нам до сих пор писателей: Джамол Юсуфзода, Сироджиддин Хаким Бухари Хурдов, Абдулвахид Бурханов - Мунзим Бухари. Кроме того, в статье акцентируется внимание на работе Абдурауфа Фитрата в связи с изданием газеты, переводится на узбекский язык и кратко анализируется стихотворение поэта «Фарёд» (Крик души), которое написано на таджикском языке и не вошла во многотомник его избранных произведений.

Ключевые слова: джадид, джадидское движение, школа «усули джадид», газета, журнал, джадидская литература, период и литература национального возрождения.

**JADID MOVEMENT AND THE NEWSPAPER “BUKHOROI SHARIF”
(SAINT BUKHARA)**

*Amonov Ulugmurod Sultanovich,
Associate Professor of the Pedagogical Institute of Bukhara State University, Ph.D.
in Philology*

Abstract. This article comments on the Jadid movement in Turkistan-Bukhara in the late 19th and early 20th centuries, the emergence of Jadid schools, the leader of the movement – Ismail Gaspirinsky, and the first national Jadid press, the “Bukhoroi Sharif” newspaper and its issues published in 1912, literary and social environment in the

newspaper "Bukhoroi Sharif". In the article the activities of the editors and publishers of the above-mentioned newspaper, Mir Haydar Khoja Kasimovich, Mir Badalov and Jalal Yusufzoda Bukhari are described briefly. Also, following the newspaper «Bukhoroi Sharif» we met some unknown writers, "new generation of Jadids" such as, Jamol Yusufzoda, Sirojiddin Hakim Bukhari Khurdov, Abdulvahid Burhanov - Munzim Bukhari. The article deals with the information about their activities. In addition, the article focuses on the work of Abdurauf Fitrat in connection with the newspaper and the author's poem "Faryod", written in Tajik, which has not been published in many volumes of Selected Works, is quoted in full, the content is translated into Uzbek and briefly analyzed.

Keywords: jadid, jadid movement, Usul-i Jadid system of education, newspaper, magazine, jadid literature, national renaissance period and literature.

O'tgan XX asr boshlarida Chor Rossiyasi mustamlakasi Turkiston hayotida, jumladan, Buxoroda iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-ma'naviy o'zgarishlar, yangiliklar sodir bo'ldi. Bu yangiliklardan eng asosiysi jadidlar harakatining paydo bo'lishi edi. Chor Rossiyasi va Buxoro amiri ma'murlarining qattiq qarshiligiga qaramasdan, imperiyaning musulmon o'lkalarida bo'lganidek «Usuli jadid» maktablari tashkil topdi. Yangi usuldag'i ta'lif tizimiga asoslangan Jadid maktablarining asoschisi sifatida shu harakatning rahnamosi, "Tarjimon", "Vaqt" gazetalarining noshiri deb e'tirof etilgan Ismoil Gaspirinskiydir.

I.Gaspirinskiy 1893-yilning 8iyunida Buxoro amirligigakelib, amir Abdulahadning huzurida bo'ldi. Muloqot-uchrashuvning natijasi shu bo'ldiki, shoh otasining nomi bilan «Muzaaffariya» jadid maktabini ochishga ruxsat berdi. Buxoroda yuz bergan har bir qangilik, nafaqat, Turkiston, balki butun O'rta osiyoga ta'sir ko'rsatgan. Xuddi shunday Buxoroda boshlangan harakat 1900-yilda Samarkanda M.Behbudiy, 1901-yilda Toshkentda Munavvar qori boshchiligidagi jadidlar harakatining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. 1906-yilda jadidlarning «Taraqqiy» ro'znomasi chiqishi bilan milliy matbuotga asos solindi. Podsho Rossiyasi senzurasiga qaramay, 1907-yildan boshlab qator ro'znama va oynomalar chiqqa boshladi. Ayniqsa, «Buxoroyi sharif», «Turon», «Samarqand» ro'znomalari hamda «Oyina» oynomalari yangi o'zbek va tojik adabiyotini shakllantirishga o'z ulushini qo'shdi desak, xato qilmaymiz. Tabiiyki, bu adabiyot davr voqealari bilan hamohang bordi, natijada jadidlarning g'oyasini tarqatuvchi «mash'al»ga aylandi.

«Turon» ro'znomasining 1912-yil 48-sonida quyidagi fikr bejiz ta'kidlab yozilman edi: «...Guruhi umumni taraqqi qildiruvchi va ya'ni jaholat va asoratdan qutqaruvchi ibtidoi maktablardir. Yordam qiluvchi jcu ababiyotbir...»

Yuqorida qayd qilganimizdek, asrimiz boshlarida yangi ta'lif tizimi – "Usuli Jadid", milliy matbuot va milliy mafkura va g'oyalarga yo'g'rilgan yangi adabiyot – Jadid adabiyoti shakllandi. Ma'rifat, erk va ozodlik g'oyalari bosh mavzusiga aylandi. Adabiyotga «Millat» va «Vatan» tushunchalari kirib keldi. Publitsistika, nasr, she'riyat rivojlandi. «Oyina» hamda «Buxoroyi sharif» atrofida adabiy muhitlar tashkil topdi.

«Tarjimon», «Vaqt», «Oyina» kabi matbuot nashrlari qatorida turuvchi «Buxoroyi sharif» ro'znomasi 1912-yilning martidan boshlab Yangi Buxorodan (Kogon shahridan – Amonov U.) Mir Haydar Xo'ja Qosimovich, Mir Badalov va Jalol Yusufzoda Buxoriy muharrirligida tojik tilida chiqqa boshlagan. Ushbu ro'znama bilan tanishish jarayonida shu xulosaga keldikki, unda Chor Rossiyasining Turkiston mustamlakasiga aylanishi, ayniqsa, Buxorodagi ko'pgina siyosiy-ijtimoiy muammolarni ochib tashlashga harakat qilingan. Jadidlar nazaridan hech bir soha chetda qolmagan.

«Buxoroyi sharif» ro'znomasini kuzatib, unda hozirgacha bizga yaxshi tanish bo'lman, noma'lum bo'lgan adiblarning «yangi avlod» bilan tanishamiz.

Jamol Yusufzoda Buxoriy mana shunday insonlardan biridir. U «Buxoroyi

sharif»ning birinchi muharriri, o‘z zamonasining peshqadam vakili, yetuk jurnalist, shoir va mohir tarjimon bo‘lgan. Jahon tillaridan yettitasini mukammal o‘rgangan. Jamol Yusufzoda rus tilidan buyuk adib L.N. Tolstoyning shoh asari bo‘lmish «Urush va tinchlik» roman – epopeyasidan parchalarni mohirlik bilan tojik tiliga tarjima qilib, ro‘znomaning qariyb yigirmaga yaqin sonida ketma-ket e’lon qilgan. Shuningdek, u atoqli fransuz adibi Alfons Dodening «Valiahdning o‘limi» asarini fransuz tilidan tojik tiliga o‘girgan.

«Buxoroyi sharif» adabiy muhitining faol ijodkorlaridan biri Sirojiddin Hakim Buxoriy Xurdovdir. Sirojiddin Hakim Buxoriyning o‘zi tabib-shifokor bo‘lgan. Uning tibbiyotga oid «Jarohatnoma» nomli asari bor. U «Buxoroyi sharif» ro‘znomasida muntazam maqolalalari bilan chiqish qilib turgan. Uning maqolalarida yurt, millat qayg‘usi bilan o‘rtangan xaqqiy vatanzavar inson siyosini ko‘rish mumkin.

Sirojiddin Hakim Buxoriy ko‘pgina Osiyo va G‘arb davlatlarida sayohatlarda bo‘lgan. Uning «Sayohatnoma» asari safar xotiralari asosida yozilgan bo‘lib, 1912-yilda nashrdan chiqqan. Mazkur asardan sayyoh – tabibning Yevropadagi siyosiy-ijtimoiy hayot bilan bog‘liq mushohadalari, fikrlari «Buxoroyi sharif» ro‘znomasida e’lon qilinganligi katta voqeadir.

«Buxoroyi sharif» ro‘znomasining yana bir faol hodimi Sadreddin Ayniyning «Esdaliklar»idan, Fayzulla Xo‘jaev asarlaridan bizga tamish bo‘lgan Abdulvohid Burxonov – Munzim Buxoriyidir. Bu zot talantli shoir, pedagog va mohir xattot bo‘lishi bilan birgalikda, keyingi paytda jadidlarning rahnamosiga aylanadi. Abdulvohid Munzim uyi (Darvozai Sallohxona guzari) dabirinchilardan bo‘lib usuli jadid maktabini ochadi. Dastlab o‘n ikkita o‘quvchi bilan ish boshlaydi, keyinchalik o‘quvchilarining soni elliktaga yetadi. (Zullisonayn adib, adabiyotshunos, navoiyshunos, tarjimon Sadreddin Ayniy «Tazhib-us-sibyon» darsligini Munzimning o‘quvchilarini uchun yozgan) U bu bilan cheklanmasdan kechki maktab ochib, unda kattalarga har kun ikki soat dars beradi. Afsuski, bu ziyo maskani qushbegi va qozikalonning buyrug‘i bilan milodiy 1909-yilda yopiladi hamda muallimga qattik tanbex beriladi. Abdulvohid Munzim «Buxoroyi sharif» ro‘znomasining 53-sonida «Vatan», 59-sonida «Tobakay» («Qachongacha»), «Maktab» she’rlarini e’lon qilganki, mazkur she’rlarda jadidona tashviqotruhini ko‘ramiz. Bizshu o‘rinda «Maktab» she’ridan parchakeltirmoqchimiz:

Biyo tolibi xugibaxt, tafsili maorif kun.
Rizoyi hazrati parvardigori yob dar maktab
Shav dil tiyra az johili birav mакtabki gardi,
Dili toriki chun xurshidi olam tob dar maktab.

Mazmuni: Kelgin, ki ey tolibi xushbaxt, maorif qil,
Hazrat parvardigorning rizosin maktabda topgin.
Johillikdan qalbing tiyra bo‘lsa, maktabga borgil,
Qalbing «Korong‘i» bo‘lsa, maktab – olam quyoshidir.

Sharqda she’r – masnaviyalar nihoyatda qadrlangan. Shuning uchun ham adabiyotda nasrdan she’riy shakl uzoq vaqt ustunlikni qo‘ldan bermagan. Jadidlar tinglovchilarining qiziqishdan kelib chiqib, o‘zlarining g‘oyalarini she’riy asarlar orqali ommaga ta’sir qilishga harakat qilishgan. Xuddi shunday Abdulvohid Munzim ham shu shaklda ijod qilgan. Jadidlar Najotni ta’limda – maktabda deb bilihgan. Shuning uchun ham maktab deb sanalmish ilm maskanining ahamiyatini odamlarga yetkazishga harakat qilishgan.

M.Siroj (52-son) va Samad Mansur (59-son)lar ham muntazam ravishda she’r va ruboilari bilan «Buxoroyi sharif» ro‘znomasida chiqishlar qilishgan. Ayniqsa, atoqli adib va olim Sadreddin Ayniy gazeta bilan nafaqat she’rlari bilan («Masti»...), balki maqolalari bilan ham hamkorlik qiladi. Ro‘znomaning bir necha sonida tojik tilining mavqeい, istiqboli va muammolari haqidagi «Dar xususi zabon» («Til masalasi

xaqida») turkum maqolalari e'lon qilingan. Demak, 1912-yilda o'z iste'dodi va ijodi bilan endigina tanilib kelayotgan Sadreddin Ayniy uchun «Buxoroyi sharif» ro'znomasi o'ziga xos ijod maktabi vazifasini o'tagan desak, yanglismaymiz.

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat ham bevosita Buxoro adabiy muhitida, xususan, jadidchilik harakati ichida shakllana boshlagan. Yosh, iqtidorli Abdurauf 1909-yili «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») nomli jamiyat tomonidan bir guruh yoshlari bilan birgalikda Turkiyaning Istanbul dorulfununiga o'qishga yuboriladi. (S.Ayniy 8-tomlik 1-tom 233-bet). Bu o'qish davri yosh, izlanuvchan talabaning shuurida buyuk bir inqilob yasadi. Haqiqatdan ham Fitrat Istanbulda turib, rivojlangan va taraqqiy etayotgan Yevropa davlatlari hamda yurtini qiyoslab, «Jon tani», «Sajdagoh Ka'basi» (A. Fitrat) darajasidagi Vatanining xarob bo'layotganini teran anglaydi. Shuning uchun Istanbulda o'qish yillari A.Fitratning barakali ijod davri hisoblanadi. Chunonchi, «Munozara» (1909- yil), «Sayyohi hindi» («Bayonoti Sayyohi hindi» 1912-yil) asarlari hamda «Sayha» ("Na'ra") she'rlar to'plami (1911-yil) Istanbulda «talabalik» davrida yaratilgan. Abdurauf Fitratning bu asarlari nafaqat buxoroliklarning, balki butun turkistonliklarning dunyoqarashida o'ziga xos burilish yasadi.

Garchand Fitrat Turkiyada ijod qilsa-da, qar bir yaratgan asari Vataniga yetib kelib, qo'lma-qo'l bo'lib ketar edi. O'zini Fitratning shogirdi deb bilgan atoqli adib Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ta'biri bilan aytganda: «...butun turkistonlik yoshlari uning ta'sirida edi».

«Buxoroyi sharif»ning 1912-yil 29-iyun 94-sonida va 3-iyul 96-sonida Abdurauf Fitratning «Faryod» nomli 40 misradan iborat she'ri – mutabbasi bosilib chiqqan.

«Faryod»

Faryodki zoru notavonem,
Boruhtanin mardu monem,
Shukufta ba gulshan namondan.
Afsurdai mehnat xazonem.
Dar sar g'ami mardumi nadorem
Lekin ba qatori mardumonem.
Ey panjai be omoni gaflat,
Moro zi chi ro' xarob kardi!?
Mo olimi durkor budem,
Mo fdzilu nomdor budem,
Dar mujdai urfoni ilm
Bo ozotu e'tibor budem.
Olam hama mast bud lekin,
Mo yaksara hushyor budem.
Ey panjai be omoni gaflat,
Moro zi chi ro' xarob kardi?
1912-yil 29-iyun. 94-son
Ku donishu ku fazilatimo,
Ku bar tani o' najotimo
Miskin-u faqir o' fitodam
Ku an uamma jo o' sarvatimo.
Pur bud dahan va go'shi mardum,
Az zamini mo, sharofati mo.
Oh! O'! Kadom dasti zolim
Shud boisi in falokati mo.
Hamiyat charo chunin banogoh
Shud dur, zi oh, saodati mo...?
Ey panjai beomonи g'aflat,
Moro zi chi ro' xarob kardi?!

Bas..! Ou...! Kunun bas in xarobi,
Nochori va faqiri an meobi
Ey, nuri du chashm-bin sina!
Biguzasht zamoni behisobi.
To kay jaholat in madoro?
To chand zi olam chehra tobi?
Qasri sharifat fitob az poy
Vaqt ast ki bihez in noxobi!
Bar xez o' bo kamoli sho'rish,
Bar g'aflat xudkun xitobi!
Ey panjai be omoni g'aflat,
Moro ranji ro' xarob kardi?!
1912-yil 3-iyul. 96-son.

Mazmuni:
Faryod kim zori notavonmiz,
Ruhsiz mardumlarmiz,

Gulistonda ham ochilishga qo'ymadilar,
Mehnatdan toliqsan xazonmiz.

Boshimizda insoniylik gami yo'q,
Lekin insonlar satoridamiz.

Ey gaflatning beomon panjası,
Bizni nima sababdan xarob etding?!

Biz olim-u javohirshunos edik,
Biz fozil-u mashhur edik.

Ilm gulshanining mujdasida,
Hur fikrli, e'tiborli edik.

Olamda hamma mast edi, lekin
Biz hammamiz birdek hushyor edik.

Ey g'aflatning beomon panjası,
Bizni nima sababdan xarob etding?!

1912-yil 29-iyun. 94-son

Qani bizning ilmimiz-u fazilatimiz?

Qani bizning ulug'ligimiz-u najotimiz?

Miskin-uu faqiru aftodamiz,

Qani o'sha jami boyligimiz!?

Insonlarning og'zi va qulog'i
Bizning yerimiz va sharofatimizdan to'la edi.

Oh, u qaysi zolimning qo'li

Bizning falokatimiz sababchisi bo'ldi.

Oh, hamiyat nega birdaniga

Bizning saodatimizdan ketdi.

Ey, gaflatning beomon panjası,

Bizni nima sababdan xarob etding?!

Bas! Oh, endi bas bu xaroblik,

Chorasizlik, faqirlik va mutelik!

Ey, ikki ko'zimning nuri,

G'aflat zamoni o'tdi!

Ey, quvvatim, qachongacha bu jaholat?

Qachongacha olamdan yuz o'girishlar?

Axir «sharif qasring» xarob bo'ldi!

Hali vaqt bor, uygongan uyqudan!



Tur va jiddu jahd bilan
 O‘z g‘aflatningga xitob qil!
 Ey, g‘aflatning beemon panjası
 Bizni nima sababdan xarob etding!?

A.Fitratning faryod, nola, g‘am, xitob ifodalangan bu she’rida insoniyat tamaduning tarqaqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sghan qadim Vatanimizning ming yilliklarga teng shonli tarixi va inqirozi; o‘z vaqtida ilm-u urfonning «quyosh shahri», ikkinchi Makka bo‘lgan endilikda xurofot, bid‘at, tanazzul botqog‘iga botgan ona Vatanı – Buxoro haqida edi. O’sha zamonda emas, hozir ham Vatan haqida osoyishta so‘zlab bo‘lmaydi. Uning dardi nihoyasiz, jarohatlari halokatli edi. Shoир uning «beemon gaflat panjasildan holi xarobligidan dod soladi. O‘tmishdagi shon-shavkatli davrlarni qo‘msaydi. Undan ko‘ngil uza olmaydi, chunki Vatanga bo‘lgan mehr Ollohning bandasiga bergen ilohiy ne’matidir. Shuning uchun shoир yurtdoshlarini, dindoshlarini g‘aflat, mutelik, qullik uyqusidan uygonishga da’vat etadi. U uchun najot qidiradi. A.Fitratning bunday o‘tli, dardli, da’vatnok she’rini o‘qigan vatandoshlari «asriy uyqu»dan uygonishi shubhasiz.

Ushbu maqola Buxoro davlat qo‘riqxona muzeyining arxivi (Ark)da saqlanayotgan «Buxoroyi Sharif»ning 1912-yilgi nashrlari asosida tayyorlandi. Arxivlarda saqlanayotgan juda kata ilmiy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan materiallar borki, bugun ana shunday taffakurning bebaho boyliklarini aniqlab chop etish manbashunos, sharqshunos, adabiyotshunos va tarixchilarining oldidagi katta vazifalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar:

1. «Buxoroyi sharif» ro‘znomasi 1912-yil nashri.
2. «Turon» ro‘znomasining 1912-yil. 48-soni
3. S.Ayniy 8-tomlik 1-tom. 233-bet.
4. Амонов У.С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
5. Amonov U.S. Salohiddinova M.Q. O‘qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati; //Научно-практическая конференция. – 2022.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek’s interpretation//Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
7. Amonov U. S. Folklore in the works of abdurauf fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
- 8.Ulug’murod Sultonovich Amonov Sh. R. Safarova. Boshlang‘ich sinf ona tili darsligining Elbek talqinidagi ko‘rinishi //Научно-практическая конференция. – 2021.
- 9.Amonov Ulugmurod Sultanovich Scientific-Theoretical and Practical Directions of Uzbek Folklore of the Twentieth Century European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24